

YOVVOYI HAYVON NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI (XI–XVII ASRDAGI LUG‘ATLAR MISOLIDA)

Ravshanova Tursuntosh - TerDU talabasi
Ilmiy rahbar: Iroda Xidirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada XI asrdan to XVII asrgacha bo‘lgan lug‘atlarda yovvoyi hayvon nomlarining leksik-semantik va fonetik tahlili berib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk” (XI asr), “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘otit turk” (XIII asr), Muhammad Yoqub Chingiy, “Kelurnoma” (XVII asr), zoonimlar.

Yovvoyi hayvonlar nomlari juda qadimdan buyon ishlatilib kelinadi. Biz bu nomlarni davrlar kesimida, lug‘atlar asosida taqqoslashga harakat qildik. Va ularning o‘ziga xos farqlarini aniqladik. Mazkur maqolada shular haqida batafsil ma‘lumot beramiz. Bu uchun biz obyekt Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (XI asr), “At – tuhfatuz zakiyatu fil lug‘otit turk” (XIII asr), Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” (XVII asr) lug‘atlariga to‘xtalib o‘tdik.

Hayvonlarning nomi yoki hayvonlarga qo‘yilgan laqab bilan qo‘llanuvchi birliklar zoonimlar deyiladi. Hayvonlar ham uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi turlarga bo‘linadi. Mazkur maqolamiz orqali biz XI asrdan XVII asrgacha bo‘lgan lug‘atlardagi yovvoyi hayvonlar nomlarining lingvistik tahlilini ko‘rib chiqamiz. Tahlilimiz davomida biz "Devonu lug‘otit turk" asaridan 27 ta, "At-tuhfat" asaridan 16 ta, "Kelurnoma" asaridan esa 13 ta so‘zning tahlilini ko‘rib chiqamiz. Dastlab har uchala lug‘atlarda ham mavjud bo‘lgan so‘zlarni keltirib o‘tamiz. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ayiq so‘zi $а\text{җ}и\text{Ғ}$ [1:47], $а\text{җ}и\text{Ғ}$ (o‘g‘uz, qipchoq, yag‘mo tillarida) [1:56] berilgan bo‘lsa, undan keyingi asrlarda yaratilgan “At – tuhfat” asarida bu so‘zning $а\text{җ}и\text{Ғ}$ [3368] tarzida, hamda Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” asarida айық [3] holatida ko‘rishimiz mumkin. “Devonu lug‘otit turk”ning 1- jildida keltirilgan алімчі – arslon [1:52] so‘zi “At-tuhfat” asarida арслан [8] tarzida ifodalangan. “Devonu lug‘otit turk”ning 1- jildida барс [1:330] tarzida ifodalangan qoplon so‘z asarining 3- jildida бурслан [3:424] holatida berilgan bo‘lsa, XII asr lug‘ati bo‘lgan “At – tuhfat” da қаплан [12] tarzida ifodalanadi. Xuddi shuningdek maymun so‘zi ham “Devonu lug‘otit turk” asarida бичін [1: 331] ko‘rinishida, “At – tuhfat” asarida esa жапжі [6] ko‘rinishida beriladi. To‘ng‘iz so‘zi ham turli davrlarda turlicha nomlanishga ega bo‘lgan. Jumladan, mazkur so‘z “Devonu lug‘otit turk” asarida тоңуз [1:331]

shaklida, "At – tuhfat" da ганҒуз[2] tarzida qoʻllangan. "Devonu lugʻotit turk" asarida tulki soʻzi тӱкү[1:404] tarzida, "Kelurnoma" asarida тулки [336а] shaklida ifodalanadi. Ajdaho soʻzi "Devonu lugʻotit turk" asarining 3- jildida нӕк јӕлан [3:170] shaklida ifodalangan boʻlsa, "At – tuhfat" asarida эждаха – ajdaho [12] tarzida ifodalanadi. Yovvoyi hayvonlardan biri boʻlgan qulon "Kelurnoma" asarida қулан[3364] tarzida berilgan boʻlsa, "At – tuhfat" asarining oʻzida ikki oʻrinda булан [7] hamda қулан [15] tarzida ifodalangan. Kirpi soʻzi кирпи [3364] tarzida "Kelurnoma" asarida qoʻllangan boʻlsa, "At – tuhfat" asarida кӱрпӱ [10] tarzida qoʻllangan. Quyoning yovvoyisi boʻlgan tovushqon "Devonu lugʻotit turk" asarida *mawiFan* [1:331] koʻrinishida ifodalangan boʻlsa, "Kelurnoma" asarida *тавушқан* [3464] tarzida beriladi. Endigi navbatda biz faqat bitta lugʻat tarkibida mavjud boʻlgan soʻzarining tahlilini koʻrib chiqamiz. "Devonu lugʻotit turk" asarida ужлан-hameleon[1:139] maʼnosida, абачӱ-ola boʻji [1:155] tarzida ifodalangan. Asarning 1-jildida keltirilgan нӕк- timsoh [331] tarzida keltirilgan boʻlsa, мердӕк-ауӱк боласи [445] shaklida beriladi. Devonning 1-jildida togʻ echkisi-арқар[139] shaklida berilgan boʻlsa, қатӱр- хачир[334] shaklida, қарсақ-tulki koʻrinishida keltirib oʻtilgan. "Devonu lugʻotit turk"ning 2-jildida yovvoyi hayvon nomlaridan суқақ-оқ кӱуӱк[331] soʻzligi uchradi. Asarning 3-jildi tarkibida katta uzun ilon-бӱкӕ[247] soʻzini uchratamiz. Тӕкӕ-erkak кӱуӱк [248] tarzida berilgan boʻlsa, тоңа-уоʻlbars jinsidan boʻlgan hayvon [379] shaklida, жаңан- fil tarzida keltirilgan. XII asrda yaratilgan "At-tuhfat" asaridan tarkibida eshak soʻzi эшак[46] tarzida berilgan boʻlsa, таңғуз-choʻchqa[51] shaklida, қолан-arslondan kuchli hayvon[9] koʻrinishida berib oʻtilgan. Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" asari tarkibida gepatit soʻzi барс[3368] tarzida beriladi. Asarda boʻri soʻzligi бори[3368] shaklida berilgan boʻlsa, йаған-sheer[33a14] koʻrinishida hamda йӕтдӱғӕн-katta ona ayiq [3266] tarzida beriladi. Lugʻatlar tarkibida qoʻllangan soʻzliklar bugungi kundagi lugʻatlardan fonetik-fonologik jihatdan farq qilishini қулан-qulon soʻzligi misolida koʻrib oʻtirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, XI asrdan XVII asrgacha boʻlgan lugʻatchilikda yovvoyi hayvonlar nomlanish jarayonida bir qancha leksik- semantik, fonetik farqlar mavjud ekan. Ushbu nomlarning har qaysisi oʻz davrida oʻz ahamiyatiga ega boʻlgan va davrlar oʻzgarishi bilan turli xil shakllarga keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Махмараимова Ш. Т. ЛУҒАВИЙ БИРЛИКЛАР ЎРТАСИДАГИ ЭПИДИГМАТИК МУНОСАБАТ: Шохиста Тухташевна Махмараимова Термиз давлат университети доценти, филология фанлари доктори //Научно-практическая конференция. – 2021

2. Mengliyev B. Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent: Akademnashr. 2013.

3. Temirova K. GASTRONOMIYA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (O 'ZBEK MILLIY TAOMLARINING LUG 'ATLARDA IFODALANISHI) //Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot. – 2022. – T. 1. – №. 24. – C. 450-452.

4. Xudoyberdiyeva G. A. Lexical synonym level in Uzbek //ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (83). – 2020. – C. 61-66.

5. Xudoyberdiyeva G. A. Lexical synonym level in Uzbek //ISJ Theoretical & Applied , Science03 (83). – 2020. – C. 61-66.

6. Xidirova I., Xidirova N. Gender Characteristics of Family Speech Speech (On the Example of the Uzbek Family) //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 196-199.

7. Raxmonjonova G., Xidirova I. CHORTOQ SO 'ZINING KELIB CHIQUISHIGA OID ILMIY QARASHLAR //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 188-189.

8. Elbek O. R. O. G. et al. TILSHUNOSLIKDA SIYOSIY DISKURS TUSHUNCHASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 229-232.